

TURK MAQOLLARIDA FARZAND OBRAZINING METAFORIK TALQINI

Altinboyev Nuriddin Abdumannonovich

JOKU katta o'qituvchisi

nuriddinaltinbaev@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada turk xalqi madaniyatida farzand obrazining talqini, tutgan o'rni maqollardagi metaforalar tahlili orqali yoritiladi. Bunda ushbu konseptning xalq lingvomadaniyatida o'ziga xos lisoniy vositalar orqali namoyon bo'lishi va turli metaforalar yordamida yuzaga chiqishi tahlilga tortilgan.

***Kalit so'zlar:** lingvomadaniyatshunoslik, konsept, lisoniy manzara, maqol, farzand, metafora*

KIRISH

Madaniyat xalqning ijtimoiy va tarixiy jarayonida vujudga kelgan, jamiyat taraqqiyotida tarixan erishilgan, sivilizatsiya bosqichini xarakterlaydigan moddiy va ma'naviy xususiyatlarning majmuidir¹. Til madaniy ma'lumotlarni uzatish vositasi sifatida xalqlarning madaniyati, dunyoqarashi, moddiy va ma'naviy turmushining xususiyatlarini yaqqol namoyon qiladi. Til – madaniyat ko'zgusi, unda xalqning o'z-o'zini anglashi, mentaliteti, milliyliigi, hayot tarzi, an'analari, urf-odatlar, axloqiy me'yorlari, qadriyatlar tizimi, dunyoqarashi, olamga munosabati aks etadi². Bu esa tilshunoslikka shaxsni shakllantiruvchi gumanitar bilimlarning majburiy qismi sifatida qarash imkonini beradi.

Lingvomadaniyatshunoslik V. Teliya boshchiligidagi iboralar maktabi tadqiqotlari asosida Y. Stepanov, N. Arutyunova, V. Vorobyev, V. Shaklein, V. Maslova kabi izlanuvchilarning ishlari bilan bog'liq ravishda rivojlandi³. V. Maslova xalqning o'tmish asrlarga oid qarashlari tildagi maqollarda, frazeologik birliklarda, metaforalarda va madaniy ramzlarda hozirgi kunimizga qadar saqlanib qolishini bayon qilib, mazkur fanning tadqiqot doirasini belgilab berishini ta'kidlaydi.⁴ Maqollar har bir xalq madaniyatida muhim o'rin tutadi. Turk tilida oilaga oid maqollar juda ko'pchilikni tashkil qiladi va hayotiy tajribalar mahsuli bo'lgan maqollarni bugungi kun kishilariga yo'l-yo'riq ko'rsata oladigan “donishmand

¹ Мардиев Т.К. Инглиз ва ўзбек тилларида инсон туйғулари ифодаланишининг концептуал таҳлили, PhD илмий даражасини олиш учун тақдим этилган этилган диссертация, Самарқанд.:2019, 11 б.

² Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М., 2000. – С.14.

³ PAŞAOĞLU, Canan, Rus ve Türk Dil Dünya Görüşlerinde Aile Konsepti, Avrasya Uluslararası Araştırmalar Dergisi, C.8, Sayı:25, s.165

⁴ Маслова, В.А., Лингвокультуроология, Москва, Academia, 2001, с.17

maktabi” deb atash mumkin. Maqollarga shu kundga qadar ko‘p va xo‘p ta’riflar berilgan. Masalan, “qanotli so‘z”, “nasihat”, “javohir so‘z”, “ibratli so‘z”, “oltin so‘z”, “tilning bo‘stoni”, “xalq maktabi”, “xalq hikmati”, “ruh tabibi”, “aqlning ko‘zi” kabi juda ixcham iboralar bilan ataladi⁵. Umuman, xalq og‘zaki ijodi va bu adabiyotni tashkil etuvchi janrlar ham shakliy, ham ichki tuzilish jihatidan butun bir xalqning his-tuyg‘ularini, fikr-mulohazalarini, hayotiy qarashlarini ifodalaydi. Ushbu janrlar yaxlit fikrlay oladigan, baholay oladigan va voqealarni yo‘naltiruvchi tushunchaga ega bo‘lgan donolikning mahsuli⁶ hisoblanadi, Bunday asarlar jamiyatning dunyoqarashi, didini ifodalash, shu boisdan ham jamiyatning psixologiyasi, xarakteri va asosiy ruhiy tuzilmalarini o‘qib, xulosalar chiqarish orqali ba’zi xulosalarga kelish jihatidan nihoyatda qimmatlidir⁷. Ifoda qudrati va nutqdagi jozibasi bilan maqollar o‘sib ulg‘ayib kelayotgan avlodning shaxsini kamol toptirishda, shaxs bo‘lib yetishishida oila, ona, ota, ayol kabi tushunchalarning o‘rni va rolini didaktik usulda taqdim qiladi. Maqollar ba’zan yoshi ulug‘ insonning yoshlarga pand-nasihatini, ogohlantirishi mazmunida ifodalansa, ba’zan erkak kishining boshqa jinsdoshiga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishini, ta’qiqlar haqida xabarini beradi, ba’zan esa ayol kishining dunyoqarashidan kelib chiqqan holda uning tilidan bayon qilinadi.

Metaforik talqin

Erkaklar va ayollar turli tillardan foydalanishlari sotsiolingvistikada yillar davomida o‘rganilayotgan asosiy masalalardan biridir. Ayol ishlatadigan til erkak ishlatadigan tildan farq qilishidan tashqari, Lakoff jamiyatda ayollar va erkaklarga nisbatan qo‘llaniladigan til ham turlicha ekanligini ta’kidlaydi. Til jins vakillarining fikrlarini qadrsizlantirishi yoki jamiyatdagi o‘rnini pasaytirishi mumkin. U jinsga asoslangan ijtimoiy stereotiplar majmuini yaratadi. “Erkaklar shafqatsiz” yoki “Ayollar matematikani tushunmaydilar” kabi. Jamiyatda ayollar va erkaklarga nisbatan qo‘llaniladigan tilni o‘rganish ana shu stereotiplarni ochishga yordam beradi⁸. Aristotel davridan beri faqat adabiy tilning bir qismi sifatida ko‘rilgan va ritorikadagi ritorikadan biri bo‘lgan metafora san’ati kundalik tilning ajralmas qismi bo‘lib, madaniy xulq-atvorni ochib berish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Metaforik so‘z – bu o‘xshash tushunchani ifodalash uchun ishlatiladigan bir yoki bir nechta so‘zlarning odatiy, an’anaviy ma’nosidan tashqari, tushuncha uchun ishlatiladigan lingvistik elementlardir. Bu bir semantik maydonni boshqa semantik

⁵ Çobanoğlu, Ö. Türk Dünyası Ortak Atasözleri Sözlüğü. Ankara: AKM Yayınları, 2004, 3.s.

⁶ Öztürk, A. Türk Anonim Edebiyatı. İstanbul: Bayrak Yayıncılık, 1986, 9s.

⁷ Akbalık, E. Türk Atasözlerinde Cinsiyet Algısı, Dumlupınar Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi – Sayı 36 – Nisan 2013, 81.s

⁸ Alagözlü, N. Dil ve Cins: Türkçe Atasözlerinde ve Deyimlerinde Kadın Üzerine Eğretilmeler ve Toplum-Bilişsel Yapı, International Journal of Central Asian Studies, Volume 13, 2009, 38.s.

maydon bilan aniqlashdir. Metaforalar nafaqat fikrni tasvirlash va insonning xohish-istaklari, his-tuygʻulari va fikrlarini yoritish uchun emas, balki ijtimoiy xulq-atvor modellari va munosabatlarini ham ochib beradi. Til va madaniyat oʻrtasidagi bogʻliqlik yoki tilning madaniyatni aks ettirish kuchi yangi nuqtayi nazar emas. Ushbu gʻoya va uning asosidagi jarayonlarni chuqur oʻrganishni birinchi boʻlib Lakoff va Jonson oʻzlarining “Biz bilan yonma-yon yashayotgan metafora”⁹ asarida amalga oshirgan. Ular ilgari surgan “Konseptual metafora nazariyasi” bilan metafora nafaqat til bezaklari, balki tafakkur tizimi va madaniyatining ifodasi ekanligini ham taklif qildilar.

Lakoff va Jonsonning kontseptual metaforalari ikki qismdan iborat: manba kontseptual soha va maqsadli kontseptual soha. Ushbu ikkita kontseptual soha uchun ikkita asosiy vazifa mavjud: metafora ifodalari uchun “manba domen” (source domen) va biz tushunishga harakat qilayotgan “nishon domen” (target domen). Xarita deb ataladigan tasvir maqsad va manba maydonlarini tashkil etuvchi elementlar oʻrtasidagi tizimli aloqalar seriyasidir. Maqsadli hududning koʻplab elementlari manba hududidan keladi. Oʻxshashning barcha xilma-xil tomonlari bu taqsimotda oʻxshash va oʻxshatish oʻrtasidagi munosabatda taqdim etiladi va uni har tomonlama tavsiflaydi. Ushbu taqsimotni miyadagi kontseptual metaforalarga misol sifatida keltirish mumkin, Lakoff va Jonson ishida “vaqt” tushunchasi. Vaqt tushunchasini “pul” tushunchasi yordamida tushuntirish yoki tushunish mumkin¹⁰. Masalan, u sarflanadigan, qimmatli narsa. Yana “hayot” tushunchasi sayohat tushunchasi bilan izohlanadi. “Hayot - bu sayohat”. “Uning boshlanishi va oxiri bor”, “Bu jarayon”, “Uning maqsadi bor”, “Bu harakat” kabi.

Metafora va idrok oʻrtasidagi taxminiy munosabat metafora va mafkura (dunyoga qarash) munosabatini ham koʻrsatadi va nutqning gʻoyaviy tuzilishini tizimli ravishda oʻqishni taʼminlaydi. Metafora til dunyoqarashini aks ettirishda katta rol oʻynaydi. Taʼriflanayotgan yoki tavsiflanadigan tushuncha bilan bogʻliq boʻlgan boshqa tushunchalar turkumining ijobiy yoki salbiy maʼnolarni yuzaga keltirishi tasvirlanayotgan tushunchaga munosabat va qarashlarni ochib beradi.

Mazkur fikrlardan kelib chiqqan holda ushbu maqola doirasida turk xalqi madaniyatida farzand obrazi maqollarda qay tariqa berilganligini tahlil qilamiz.

Farzand obrazining metaforalar orqali ifodalanishi

Farzand turk madaniyatida oila mavjudligini belgilab beruvchi asosiy omil sanaladi. Turk jamiyatida farzand er-xotin aloqalarning mustahkamlovchi, ayolning oiladagi oʻrnini belgilovchi, otaning jamiyatdagi mavqeyini koʻrsatuvchi asosiy

⁹ Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live by*, The University of Chicago Press, Chicago – 1980

¹⁰ Lakoff G., Johnson M. *Koʻrsatilgan asar*, Chicago – 1980, p.9

faktor hisoblanadi. Farzand, ega bo‘linishi kerak bo‘lgan va hayotning go‘zalligini oshiradigan qadriyat sifatida qaralib, uning yo‘qligi qat’iy qoralanadi va tanqid qilinadi: *Çocuksuz kadın meyvesiz ağaç gibidir* (Befarzand ayol mevasiz daraxtga o‘xshaydi), *Oğlanı kızı olmayan avrattan, eski hasır yeğdir* (O‘g‘il qizi yo‘q xotindan eski bo‘yra yaxshi), *Çocuk evin meyvesidir* (Bola uyning mevasidir), *Çocuklu ev pazar, çocuksuz ev mezar* (Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor), *Evlâdı olmayanda merhamet olmaz* (Bolasi yo‘qning shafqati bo‘lmaydi). Farzand *meva, bozor, shafqat* so‘zlari bilan turk madaniyatidagi o‘z o‘rnini aniq ko‘rsatib bergan. Farzandsiz insonlar, asosan, ayollarga nisbatan salbiy qarashni kuzatish mumkin.

O‘g‘il farzand ko‘rish istagining nisbatan ustunligi haqida gapirish mumkin bo‘lsa-da, qiz farzand ko‘rish ham talab qilinadigan holat: *Bir anaya bir kız, bir kafaya bir göz* (Bir onaga bir qiz, bir boshga bir ko‘z), *Kızı kim istemez, kımız kim içmez* (Kim qiz istamas, qimiz kim ichmas) kabi maqollar buni tasdiqlasa ham, qiz farzandli bo‘lish ko‘p qiyinchiliklar va muammolarga duchor bo‘lishni talab etuvchi holatdir. Boshga ko‘z qanchalik kerak bo‘lsa, qiz farzand ona uchun shunday ahamiyatlidir. Oiladagi yumushlarni, odatda, xotinidan keyin qiz farzandlar o‘z zimmasiga oladi. Qiz bola otasiga sidqidildan xizmat qiladi (qimiz keltirib beradi). Shunday bo‘lishiga qaramasdan, qizlarni har jihatdan himoya qilish, ularga g‘amxo‘rlik qilish, ularning tarbiyasi, odob-axloqi, or-nomusi, turmush qurishi, turmush o‘rtog‘ini to‘g‘ri tanlashi kabi masalalar har tomonlama ota-onaning zimmasida bo‘lganligi sababli qiz farzandli bo‘lish “og‘ir” sanaladi: *Oğlan doğuran övünsün, kız doğuran dövünsün* (O‘g‘il tug‘gan maqtansin, qiz tug‘gan tizzasin mushtlasin), *Kız doğuran tez kocar* (Qiz tug‘gan tez qatidydi), *Kızın var, sizin var* (Qizing bor, muammong bor), *Bir ev (gemi) donanır, bir kız (çıplak) donanmaz* (Bir uy (kema) jihozlanishi mumkin, qiz esa yo‘q). Qizlar o‘g‘il bolalardan ham jismonan, ham ruhiy jihatdan zaifroq hisoblanganligi sababli, ular himoya va yashirinishga muhtoj bo‘lib ko‘riladi. Shu ma‘noda qizlarning ta‘lim-tarbiyasi va nazorati katta ahamiyatga ega. Qizlar to‘g‘ri qaror qabul qilishda, irodasidan to‘g‘ri foydalanishda qiynaladi. Shuning uchun turk xalqi nazdida ular har doim oila nazorati va himoyasida bo‘lishlari kerak: *Kızını dövmeyen dizini döver* (Qizini urmagan, tizzasin mushtlar), *Kızı kendi gönlüne bırakırsan ya davulcuya varır ya zurnacıya* (Qizning ko‘ngliga qarasang, yo do‘mbirachini, yo surnaychini tanlaydi), *Oğlun pazar aşu tatmasın, kızın komşu evinde yatmasın* (O‘g‘ling bozor oshi totmasin, qizing qo‘shni uyida yotmasin).

Endi farzand bilan bog‘liq metaforik o‘xshatishlarni ko‘rib chiqamiz. Farzand bilan bog‘liq umumiy tushunchalar qismida bularga aslida biroz to‘xtalib ham o‘tdik.

Yegulik: *Evlət kısmı şirin lokmadır, ne iyisinden geçilir, ne kötüsünden* (Bola degani shiringina luqmadir, na yaxshisidan, na yomonidan kecha olasan), *Herkes pişirdiğini soğutsun, doğurduğunu büyütsün* (Hamma o'zi pishirganini sovutsin, tug'ganini katta qilsin), *Çocuk evin meyvesidir* (Farzand uying mevasidir), *Armut dalının dibine düşer* (Nok shoxining tagiga tushadi), *Evladın hamı tatlı olur* (Bolaning pishmagani(xomi) shirin bo'ladi), *Oğlanı doğuran ana sevinmesin de, ekmeğini yiyen sevinsin* (O'g'il tug'gan ona emas, nonini yegan ona suyunsin), *Oğlanınki oğul balı, kızınki bahçe gülü* (O'g'ilniki asil asal, qizniki hovli guli) *Anasız çocuk evde çürür, babasız çocuk çarşıda* (Onasiz bola uyda chirydi, otasiz bola – bozorda) maqollarida farzand luqma, pishgan narsa, meva, nok, xomi, non, asal kabi obrazlar orqali beriladi.

O'simlik: *Ekin ekdim yel aldı, değirmen yaptım sel aldı, oğul yetiştirdim el aldı* (Ekin ekdim yel oldi, tegirmon qurdim sel oldi, o'g'il o'stirdim el oldi), *Karpuz kökeninde büyür* (Taruuz tubida o'sadi), *Karpuz sulandıkça büyür* (Taruuz suvlagan sari o'sadi), *Kız büyür bahtı beraber büyür* (Qiz o'sadi, baxti o'zi bilan birga o'sadi), *Ağaç yaş iken eğilir* (Daraxt novdaligida egiladi), *Oğlanınki oğul balı, kızınki bahçe gülü* (O'g'ilniki asil asal, qizniki hovli guli) maqollarida farzand o'stirmoq (*yetiştirdim*), tarvuz (*karpuz*), o'smoq (*büyür*), daraxt (*ağaç*), hovli guli (*bahçe gülü*) obrazlari oqali tasvirlangan.

Narsa-buyum: *Bir ev donanır, bir kız donanmaz* (Bir uy jihazlanadi, qiz jihazlanmaydi), *Bir evde ikki kız, biri çuvaldız, biri biz; bir evde iki oğlan, biri devlet biri mihnet* (Bir uyda ikki qiz, biri juvaldi(katta igna), biri bigiz, bir uyda ikki o'g'il, biri davlat, biri mashaqqat),

Tashvish, dard, muammo, qiyinchilik: *Çocuğu olanın bin, olmayanın bir derdi var* (Bolasi borning ming, bolasi yo'qning bir dardi bor) yoki *Evladın varsa bin derdin var, evladın yoksa bir derdin var* (Farzanding bo'lsa, ming darding bor, farzanding yo'q bo'lsa, bir darding bor), *Evladın var mı, derdin var* (farzanding bormi, darding ham bor), *Bir evde ikki kız, biri çuvaldız, biri biz; bir evde iki oğlan, biri devlet biri mihnet* (Bir uyda ikki qiz, biri juvaldi(katta igna), biri bigiz, bir uyda ikki o'g'il, biri davlat, biri mashaqqat), *Çocuk büyütme taş kemirmek* (Bola katta qilish tosh kemirish), *Çocuk isteyen belasını da istemesi gerek* (Bola tilagan balosini ham tilashi kerak), *Kızı olan tez kocar* (Qizi bor odam tez qariydi), *Kızın var, sizin var* (Qizing bor bo'lsa, o'g'rig'ing ham bor), maqollarida farzand dard (*derdin var*), mashaqqat (*mihnet*), tosh kemirish (*taş kemirmek*), tez qarish (*tez kocar*), o'g'riq (*sızın var*) obrazlari orqali talqin qilingan.


Qimmatbaho buyum: *Kız ile altın gizli gerek* (Qiz bilan oltin yashirilishi kerak), *Çocuk kari koca arasında altın toptur* (Bola er-xotin orasidagi oltin to‘p) maqollarida farzand oltin (*altın*), oltin to‘p (*altın toptur*) obrazlarida namoyon bo‘ladi.

Xarajat, to‘ymas “mavjudot”: *Oğlanın karası para kesesi, kızın karası can tasası* (O‘g‘ilning yomoni – hamyonga jabr, qizning yomoni joningga jabr), *Bir kaz doymaz, bir kız* (Bir g‘oz to‘ymaydi, bir qiz), *Kız boğazı kırk boğum olur* (Qiz tomog‘i qirq bo‘g‘im bo‘ladi), *Yavru kuşun ağzı büyük olur* (Polaponning og‘zi katta bo‘ladi) *Eşeğe ‘sıpan oldu’ demişler, ‘sırtındaki yükümü atacak değil ya, önümdeki yemimi alacak’ demiş* (Eshakka “xo‘tikchali bo‘lding” deyishibdi, “ustimdagi yukni olmaydi, oldimdagi yemni oladi” debdi) maqollarida esa hamyon (*para kesesi*), to‘ymaydi (*doymaz*), qirq bo‘g‘im (*kırk boğum*), og‘zi katta (*ağzı büyük*), yem (*yemimi alacak*) so‘zlari orqali metafora hosil bo‘lgan.

Do‘st-dushman: *Yılana yavrusu düşman olur* (Ilonning bolasi o‘ziga dushman bo‘ladi), *Oğul babaya, kız anaya yar olur* (O‘g‘il otaga, qiz onaga do‘st bo‘ladi), *Çocuk kısmı hem ağlatır, hem güldürür* (Bola ham kuldiradi, ham yig‘latadi), *Çocuk kısmı hem dost, hem düşman* (Bola ham do‘st, ham dushmandir), *Çocukla çıkma yola, düşersen güler, düşerse ağlar* (Bola bilan yo‘lga chiqma, yiqilsang kuladi, yiqilsa yig‘laydi) maqollarida farzand dushman (*düşman*), do‘st (*yar, dost*), kuldiradi (*güldürür*), yig‘latadi (*ağlatır*), yiqilsang kuladi (*düşersen güler*) so‘z va birikmalar orqali talqin qilingan.

Ishonchsizlik va xavf: *Oğluna güvenme, koluna güven* (O‘g‘lingga ishonma, bilagingga ishon), *Büyükler evde söyler, çocuklar damda söyler* (Kattalar uyda gapirishadi, bolalar tomda aytishadi), *Çocuğa emniyet olmaz* (Bolaga ishonib bo‘lmaydi), *Çocuğun bulunduğu yerde dedikodu olmaz* (Bola bor joyda mish-mish bo‘lmaydi), *Kadına, çocuğa, sarhoşa sırrını açma* (Ayolga, bolaga, sarxushga siringni aytma) maqollarida farzand ishonma (*güvenme*), aytib qo‘yadi (*damda söyler*), ishonch yo‘q (*emniyet olmaz*), mishmish bo‘lmaydi (*dedikodu olmaz*), siringni aytma (*sırrını açma*) kabi so‘z va so‘z birikmalari yordamida ifodalangan.

Haq so‘z: *Haberin doğrusunu oğlandan al* (Xabarning to‘g‘risini o‘g‘londan ol), *Çocuktan al haberi* (Boladan xabarni(haqiqatni) bilib ol) maqollarida rost xabar (*haberin doğrusunu*) va haqiqat, xabar, ma‘lumot (*haber*) so‘zlari orqali bolalar yolg‘on gapirmasliklari, haqiqatni yashirmasliklari bayon qilingan.



XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, turk madaniyatida farzand oilaning eng asosiy omillaridan biri bo‘lishiga qaramay, farzand bilan bog‘liq maqollarning aksariyati bolaning salbiy jihatlarni ko‘rsatgan. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, turk xalqi “ming dardni bir darddan” afzal ko‘radi. Oila konseptini ochib berishda farzand obrazi muhim rol o‘ynaydi. Turk xalqining lisoniy manzarasida farzand ramziy tarzda narsa-buyum, yegulik, o‘simlik, haq so‘z, boylik, dard, tashvish, xarajat(chiqim) kabi bir qator tushunchalarni ifodalab keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. Мардиев Т.К. Инглиз ва ўзбек тилларида инсон туйғулари ифодаланишининг концептуал таҳлили, PhD илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация, Самарқанд.:2019
2. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М., 2000
3. Paşaoğlu, Canan, Rus ve Türk Dil Dünya Görüşlerinde Aile Konsepti, Avrasya Uluslararası Araştırmalar Dergisi, C.8, Sayı:25
4. Маслова, В.А., Лингвокультурология, Москва, Academia, 2001
5. Çobanoğlu, Ö. Türk Dünyası Ortak Atasözleri Sözlüğü. Ankara: AKM Yayınları, 2004
6. Öztürk, A. Türk Anonim Edebiyatı. İstanbul: Bayrak Yayıncılık, 1986
7. Akbalık, E. Türk Atasözlerinde Cinsiyet Algısı, Dumlupınar Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi – Sayı 36 – Nisan 2013

8. Alagözlü, N. Dil ve Cins: Türkçe Atasözlerinde ve Deyimlerinde Kadın Üzerine Eğretilmeler ve Toplum-Bilişsel Yapı, International Journal of Central Asian Studies, Volume 13, 2009
9. Lakoff G.,Johnson M. Metaphors We Live by, The University of Chicago Press, Chicago – 1980
10. Aksoy, Ömer Asım. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü. İstanbul 2016